

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

## “MEHNATKASHLIK” KONSEPTINING PAREMIOLOGIK ZONASI TAHLILI

**Babanazarova Sohiba Abdusharipovna**

Xorazm Ma'mun akademiyasi, doktorant.

e-mail: [sohibababanazarova@gmail.com](mailto:sohibababanazarova@gmail.com) ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7047-0863>

### **Annotatsiya.**

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi maqollar, frazeologik birliklar va turg'un o'xshatishlar asosida “Mehnatkashlik” konseptining paremiologik zonasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mehnatkashlik konseptining verbalizatsiya vositalari aniqlanib, uning aksiologik, utilitar, etik, regulativ, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik komponentlari tavsiflanadi. Paremiologik materiallar asosida konseptning yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlari ajratilib, o'zbek xalqining mehnat va mehnatsevarlik haqidagi konseptual tasavvurlari yoritiladi. Tahlil natijalari mehnatkashlikning o'zbek lisoniy ongida halollik, g'ayrat, farovonlik, ijtimoiy hurmat va ma'naviy komillik bilan bog'liq muhim qadriyat sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** “mehnatkashlik” konsepti, paremiologik zona, konseptual tahlil, maqol, frazeologik birlik, turg'un o'xshatish, kognitiv tilshunoslik, aksiologik komponent.

## ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКАЯ ЗОНА КОНЦЕПТА “ТРУДОЛЮБИЕ”

**Бабаназарова Сохиба Абдушариповна**

Хорезмская академия Маъмуна, докторант.

### **Аннотация.**

В данной статье на материале узбекских пословиц, фразеологических единиц и устойчивых сравнений анализируется паремиологическая зона концепта «Трудолюбие». В ходе исследования выявляются средства вербализации данного концепта и описываются его аксиологический, утилитарный, этический, регулятивный, социальный и социально-психологический компоненты. На основе паремиологического материала выделяются ядерная, ближняя и дальняя периферийные зоны концепта, раскрывающие концептуальные представления узбекского народа о труде и трудолюбии. Результаты исследования показывают, что в языковом сознании узбеков трудолюбие выступает важной ценностью, связанной с честностью, усердием, благосостоянием, общественным уважением и духовным совершенством.

**Ключевые слова:** концепт трудолюбия, паремиологическая зона, концептуальный анализ, пословица, фразеологическая единица, устойчивое сравнение, когнитивная лингвистика, аксиологический компонент.

## ANALYSIS OF THE PAREMIOLOGICAL ZONE OF THE CONCEPT OF “DILIGENCE”

**Babanazarova Sohiba Abdusharipovna**

Khorezm Mamun Academy, Doctoral Student.

### **Abstract.**

This article analyzes the paremiological zone of the concept of “Diligence” based on Uzbek proverbs, phraseological units, and fixed similes. The study identifies the linguistic means of verbalizing the concept and describes its axiological, utilitarian, ethical, regulative, social, and socio-psychological components. Based on paremiological material, the nuclear, near-peripheral, and far-peripheral layers of the concept are distinguished, revealing the conceptual perception of labor and diligence in the Uzbek linguistic worldview. The findings demonstrate that diligence is conceptualized as an important value associated with honesty, industriousness, prosperity, social respect, and moral perfection in Uzbek language consciousness.

**Keywords:** concept of diligence, paremiological zone, conceptual analysis, proverb, phraseological unit, fixed simile, cognitive linguistics, axiological component.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda inson omiliga yo'naltirilgan antropotsentrik paradigma asosida olib borilayotgan



tadqiqotlar til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlarini yangi nuqtayi nazardan yoritishga imkon bermoqda. Kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya yo'nalishlarining rivojlanishi natijasida til birliklari ortida yashiringan konseptual mazmunni aniqlash va milliy-madaniy qadriyatlarining til orqali ifodalanish mexanizmlarini o'rganish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Konsept inson tafakkurida shakllangan va muayyan xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatlari hamda madaniy xotirasini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab mental birlik sifatida talqin qilinadi.

Har bir xalqning olam haqidagi tasavvurlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy qadriyatlari, eng avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalarida, xususan, maqol, matal, ibora va turg'un o'xshatishlarda o'z aksini topadi. Paremiologik birliklar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, mehnat faoliyati, turmush tarzi va ma'naviy qarashlarini saqlovchi muhim lingvokulturologik manba hisoblanadi. Shu jihatdan mehnat va mehnatsevarlik bilan bog'liq paremiologik birliklar o'zbek xalqining mehnatga munosabati, mehnatkash inson idealini qanday tasavvur qilishi hamda dangasalik kabi salbiy sifatlarni qanday baholashini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek milliy konseptosferasida **«mehnatkashlik»** konsepti alohida o'rin egallaydi. Mazkur konsept xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim qadriyat sifatida namoyon bo'lib, halollik, tirishqoqlik, g'ayrat, sabr-toqat, mas'uliyat, farovonlik va obro' kabi tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi turg'un o'xshatishlar, frazeologik birliklar va maqollar asosida **«mehnatkashlik»** konseptining paremiologik zonasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida konseptning aksiologik, utilitar, etik, regulativ hamda ijtimoiy komponentlari aniqlanib, ularning xalqning milliy-madaniy dunyoqarashidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, paremiologik birliklar orqali mehnatning qadri, mehnatsevar inson obrazi va dangasalikning salbiy baholanishi lingvokognitiv nuqtayi nazardan tavsiflanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** «Mehnat» va «mehnatsevarlik» konseptlari insoniyatning asosiy madaniy-axloqiy qadriyatlaridan biri sifatida ko'plab kognitiv, lingvokulturologik hamda paremiologik tadqiqotlarning obyektiga aylangan. Ushbu konseptlarning mazmuniy tuzilishi, milliy-madaniy xususiyatlari, til birliklari orqali verbalizatsiyasi va qadriyatlar tizimidagi o'rni turli olimlar tomonidan har xil tillar materiallari asosida tadqiq etilgan.

Masalan, L.N. Miroshnichenko o'zining dissertatsiyasida «mehnat» konseptini kognitiv va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tadqiq etgan. Tadqiqotda konsept nazariyasining metodologik asoslari yoritilib, rus va yangi grek tillari paremiologik fondi materiallari asosida «mehnat» konseptining verbalizatsiyasi, freym tuzilishi hamda milliy-madaniy xususiyatlari tahlil qilingan. Muallif qiyosiy tahlil orqali mazkur konseptning universal va etnomadaniy jihatlarini aniqlab, mehnatning har ikki xalq lisoniy ongidagi o'rni va qadriyat sifatidagi ahamiyatini ochib bergan [1].

X.N. Magomedova esa avar tili maqol va matallarining semantik va sintaktik xususiyatlariga bag'ishlangan dissertatsiyasida «mehnat» va «mehnatsevarlik» konseptini paremiologik materiallar asosida tahlil qilgan. Muallif maqol va matallarni tematik jihatdan tasniflar ekan, «mehnat, mehnatsevarlik» konseptini alohida guruh sifatida ajratadi hamda avar xalqining mehnatga bo'lgan munosabatini lingvokulturologik nuqtayi nazardan tavsiflaydi. Tadqiqotda mehnat inson hayotining asosiy qadriyati sifatida talqin qilinib, mehnatsevarlik sog'liq, farovonlik, halollik va ijtimoiy hurmat bilan bog'lanishi, dangasalik esa qashshoqlik, kasallik va ijtimoiy qoralash bilan assotsiatsiyanishi ko'rsatib berilgan. Muallif paremiologik birliklar orqali avar xalqining mehnatni yuksak axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida baholashi, mehnatsevar insonni ulug'lashi hamda dangasalikni salbiy xususiyat sifatida qoralashini ochib beradi. Shuningdek, tadqiqotda «mehnat» konseptining maqol va matallarda nafaqat bevosita, balki mehnat natijasi, hosildorlik, halol rizq, g'ayrat va tirishqoqlik kabi tushunchalar orqali ham verbalizatsiyanishi ta'kidlangan [2].

L.V. Basova rus tilidagi maqol va matallar materiallari asosida «mehnat» konseptining semantik tuzilishi hamda uning xalq lisoniy ongidagi aksini tadqiq etgan. Tadqiqotda mehnatning qadriyat sifatidagi o'rni, uning mehnatsevarlik, halollik, mas'uliyat va farovonlik kabi tushunchalar bilan bog'liqligi paremiologik birliklar orqali yoritilgan [3].

R.X. Karimova esa «mehnat / dangasalik» konseptlarini nemis, ingliz, rus, boshqird va tatar tillari paremiologiyasi misolida qiyosiy jihatdan tahlil qilgan. Muallif ushbu konseptlarning universal va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlab, turli xalqlarning mehnatga va dangasalik hodisasiga munosabati maqol va matallarda qanday aks etishini ko'rsatib bergan. Tadqiqot natijasida mehnatning aksariyat madaniyatlarda ijobiy qadriyat sifatida baholanishi, dangasalik esa salbiy hodisa sifatida talqin qilinishi aniqlangan [4].

T.A. Ostrovskaya «mehnat» konseptini rus va Amerika lingvomadaniyatlari materiallari asosida o'rganib, mazkur konseptning milliy-madaniy mazmunini qiyosiy aspektida tavsiflagan. Tadqiqotda mehnat konseptining konseptual belgilari, uning qadriyatlar tizimidagi o'rni hamda ikki xalqning mehnatga munosabatidagi umumiy va farqli jihatlar aniqlangan [5].

O.E. Chernova esa «mehnat» konseptini ideologizatsiya obyekti sifatida tadqiq qilgan. Muallif mehnat tushunchasining turli ijtimoiy-siyosiy davrlarda qanday mafkuraviy mazmun kasb etishi, uning til va nutqda qanday konseptual modellar orqali ifodalanishini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalarida mehnat konseptining nafaqat iqtisodiy yoki axloqiy, balki mafkuraviy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab konsept ekanligi asoslab berilgan [6].

Yuqoridagi tadqiqotlarda asosan «mehnat» konseptining turli tillardagi verbalizatsiyasi, konseptual tuzilishi hamda lingvomadaniy xususiyatlari o'rganilgan. Mazkur tadqiqot esa ulardan farqli ravishda o'zbek tilidagi «mehnatkashlik» konseptining paremiologik zonasini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, konseptning maqollar, iboralar va turg'un o'xshatishlar orqali ifodalanishi hamda uning aksiologik, utilitar, etik, regulativ va ijtimoiy komponentlari tizimli ravishda tavsiflanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot antropotsentrik paradigma va kognitiv tilshunoslik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot materiali sifatida o'zbek tilidagi mehnat va mehnatsevarlik semantikasi bilan bog'liq maqollar, matallar, frazeologik birliklar hamda turg'un o'xshatishlar tanlab olindi. Til birliklarini saralashda

ularning **“mehnatkashlik”** konseptini verbalizatsiya qilish darajasi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy (deskriptiv) metod yordamida paremiologik birliklarning semantik mazmuni izohlandi, konseptual tahlil metodi orqali **“mehnatkashlik”** konseptining mazmuniy tarkibi va konseptual belgilari aniqlandi. Shuningdek, paremiologik birliklarning baholovchi xususiyatlarini ochib berish maqsadida aksiologik tahlil usulidan foydalanildi. Mehnatkashlik konseptining tarkibiy qismlarini aniqlashda tasniflash va guruhlash metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasini **“O'zbek tilining izohli lug'ati”** [7], **“O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati”** [8], **“O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati”** [9], **“Hikmatnoma”** [10] hamda o'zbek xalq maqollari va iboralari tashkil etdi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot davomida o'zbek tilining paremiologik fondidan **“mehnatkashlik”** konseptini verbalizatsiya qiluvchi maqollar, frazeologik birliklar va turg'un o'xshatishlar saralab olindi hamda kognitiv-semantik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mehnatkashlik konsepti o'zbek xalqining lisoniy ongida yuksak qadriyat sifatida namoyon bo'lib, u halollik, tirishqoqlik, g'ayrat, sabr-toqat, farovonlik, ijtimoiy hurmat va axloqiy komillik kabi tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Paremiologik birliklar asosida konseptning aksiologik, utilitar, etik, regulativ, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik komponentlari aniqlandi. Shuningdek, mehnatkashlik konsepti ko'plab birliklarda dangasalik, erinchoqlik va ishyoqmaslik kabi salbiy sifatlar bilan oppozitiv munosabatda namoyon bo'lishi kuzatildi. Quyida konseptning paremiologik zonasi tarkibiga kiruvchi til birliklari mazkur komponentlar asosida tahlil qilinadi.

**Turg'un o'xshatishlar:** **eshakday** (kabi, singari) – o'zini ayamay, og'ir va mashaqqatli mehnat qilish; mehnat yukini sabr bilan ko'tarish (utilitar/baholovchi); **chumoliday** (kabi, misoli) – tinimsiz, jamoa bo'lib, g'ayrat va tartib bilan ishlash (aksiologik); **ho'kizday** – jismoniy kuch talab qiladigan og'ir mehnatni bajarish (utilitar); **qulday** (kabi, singari) – o'z manfaatini unutib, mutelik va haq-huquqsiz mehnat qilish (ijtimoiy-baholovchi); **molday** (ga o'xshab) – kuchini ayamadan, foyda-zararni hisoblamay ishlash (baholovchi); **itday** (kabi, singari) – o'ta fidoyilik bilan, charchoq va qiyinchilikka qaramay mehnat qilish (aksiologik); **devday** – nihoyatda kuchli, bardoshli va to'xtovsiz ishlash (aksiologik); **yigitlarday** – g'ayratli, chaqqon, yoshlar kabi serharakat mehnat qilish (ijtimoiy-aksiologik).

**Iboralar:** **ter to'kmoq** – mashaqqatli va og'ir mehnat qilish, katta jismoniy kuch sarflash (utilitar); **ishga solmoq I** – insonlarni mehnatga safarbar qilish, ishni tashkil etish (regulativ); **ishga solmoq II** – boshqalarni maqsad yo'lida xizmatga jalb qilish (ijtimoiy); **ishga solmoq III** – mavjud vosita yoki imkoniyatdan samarali foydalanish (utilitar); **ishga tushmoq I** – faol mehnatni boshlash, ish jarayoniga kirishish (regulativ); **ishga tushmoq II** – texnika yoki vositaning ishlay boshlashi (utilitar); **peshona teri to'kildi** – mashaqqatli, fidokorona mehnat evaziga natijaga erishish (aksiologik); **peshona teri** – halol mehnat bilan topilgan rizq va boylik (aksiologik); **temirni qizig'ida bosmoq** – ishni qulay va o'z vaqtida bajarish, imkoniyatdan foydalanish (regulativ).

**Maqollar:** *“Mehnat baxt keltirar”* - mehnat farovonlik va baxt manbai (aksiologik); *“Mehnat bekor qolmas”* - har qanday mehnat samara beradi (aksiologik); *“Mehnat bilan mol topib, hasrat bilan kun eltdim”* - boylik mehnat bilan topiladi, mehnatsizlik afsus keltiradi (baholovchi); *“Mehnat bilan har kishi yetgay murodga”* - maqsadga mehnat orqali erishiladi (aksiologik); *“Mehnat, mehnatning tagi – rohat”* - mehnat oxir-oqibat huzur va farog'at keltiradi (aksiologik); *“Mehnat – boylik”* - mehnatning o'zi eng katta boylikdir (aksiologik); *“Mehnat – vijdon ko'zgusi”* - insonning axloqiy qiyofasi mehnatda namoyon bo'ladi (etik); *“Mehnatdan kelgan – shirin”* - halol mehnat mahsuli qadrlil bo'ladi (aksiologik); *“Mehnatda sinalgan elda aziz”* - mehnatkash inson hurmatga sazovor bo'ladi (ijtimoiy); *“Mehnatda tug'ilgan muhabbat vafo keltiradi”* - birgalikdagi mehnat insonlarni yaqinlashtiradi (ijtimoiy-psixologik); *“Mehnat yerda qolmas”* - mehnatning mukofoti muqarrar (aksiologik); *“Mehnatiga qarab unumi”* - natija mehnat miqdori va sifatiga bog'liq (utilitar); *“Mehnatning – zeb-u ziynatning”* - mehnat insonning bezagi va fazilatidir (aksiologik); *“Mehnatningni halol qilsang, huzurini ko'p ko'rasan”* - halol mehnat ruhiy qoniqish beradi (etik-aksiologik); *“Mehnatning qattiq bo'lsa, yeganing totli bo'lar”* - mashaqqat mehnat ne'matning qadrini oshiradi (aksiologik); *“Mehnat – yigitning ko'rki”* - mehnatsevarlik ideal inson sifatidir (aksiologik); *“Mehnatkash toshni yorar”* - tirishqoqlik eng qiyin to'siqlarni yengadi (baholovchi); *“Mehnat kishini boqar, yalqovlik o'tga yoqar”* - mehnat farovonlik, dangasalik halokat keltiradi (baholovchi); *“Mehnat kishini ulug'laydi”* - mehnat ijtimoiy mavqe va hurmat manbai (aksiologik); *“Mehnatni ayamasang, hosil qaynayveradi”* - mehnat mo'l-ko'l natija beradi (utilitar); *“Mehnatsiz ish bitmas, erinchoqning qo'li yetmas”* - har qanday muvaffaqiyat mehnat talab qiladi (regulativ); *“Mehnatsiz topilgan oshdan mehnatda topilgan tosh yaxshi”* - halol mehnat mahsuli oson topilgan ne'matdan afzal (aksiologik); *“Mehnatsiz turmush – o'g'irlik, san'atsiz turmush – vahshiylik”* - mehnat insoniy hayotning zarur sharti (etik); *“Mehnat – uzoq umr garovi”* - mehnat inson salomatligi va umriga foydali (utilitar); *“Mehnat – farog'at chirog'i”* - mehnat osoyishtalik va huzur manbai (aksiologik); *“Mehnat shuhrat keltiradi”* - mehnat obro' va e'tirof manbai (ijtimoiy); *“Mehnat el baxtini tuzar”* - jamiyat taraqqiyoti mehnatga bog'liq (ijtimoiy); *“Mehnat qanchalik qiyin bo'lsa, rohati (samarasi, keti) shunchalik shirin bo'lar”* - mashaqqat natijaning qadrini oshiradi (aksiologik); *“Mehnat qilgan dur keltirar”* - mehnat qimmatli natija beradi (aksiologik); *“Mehnat qilgan moy oshar”* - mehnat farovonlikni ko'paytiradi (utilitar); *“Mehnat qildim – xo'p qildim, minnat qildim – yo'q qildim”* - mehnat qadrlanadi, minnat esa uning qiymatini kamaytiradi (etik); *“Mehnat qilsang egiz-egiz, davlat ham egiz-egiz”* - mehnat boylik va farovonlikni ko'paytiradi (aksiologik); *“Mehnat qil-u, minnat qilma”* - mehnatni kamtarlik bilan qilish kerak (etik-regulativ); *“Yetmish go'zallikning biri – mehnat”* - mehnatsevarlik insonning go'zal fazilatidir (aksiologik); *“Go'zallik husnda emas, mehnatda”* - haqiqiy go'zallik mehnatsevarlikda (aksiologik); *“Daryo suvini bahor toshirar, Odam qadrini mehnat oshirar”* - insonning qadri mehnati bilan belgilanadi (ijtimoiy-aksiologik); *“Mehnat – rohatning padevori”* - farovonlik va huzur mehnat asosida quriladi (aksiologik); *“Rohatning onasi – mehnat”* - farovonlik va huzur mehnat natijasidir (aksiologik); *“Obro'ning onasi mehnat, otasi – sa'yi harakat”* - hurmat va mavqe mehnat hamda intilish bilan qo'lga kiritiladi (aksiologik); *“Odamni ish tanitadi”* -

insonning qadr-qimmatini mehnati orqali bilinadi (ijtimoiy); *“Yuk ko’targan yuzaga chiqar”* - mehnatkash inson muvaffaqiyatga erishadi (baholovchi); *“Yuk ko’targanning yuzi yorug”* - mehnat insonni uyatga qoldirmaydi, obro’ keltiradi (aksiologik); *“Intilgan – elga yoqar”* - tirishqoq inson jamiyat e’tirofiga sazovor bo’ladi (ijtimoiy); *“Mehnatdan do’st ortar, G’iybatdan dushman”* - mehnat ijtimoiy yaqinlik, g’iybat esa nizolar manbai (ijtimoiy); *“Ota urug’i birlashtirmas, Mehnat yo’rig’i birlashtirar”* - birgalikdagi mehnat insonlarni yaqinlashtiradi (ijtimoiy); *“Mehnat, mehnatning tagi ziynat”* - mehnat inson hayotini bezaydi (aksiologik); *“Halol mehnat – huzur-halovat”* - halol mehnat ruhiy xotirjamlik beradi (etik-aksiologik); *“Halol mehnat – mo’l daromad”* - halol mehnat farovonlik manbai (aksiologik); *“Halol mehnat – yaxshi odat, Berur senga saodat”* - mehnatsevarlik baxt keltiruvchi fazilatdir (etik-aksiologik); *“Halol ishla, halol tishla”* - halol mehnat halol rizqning asosidir (etik-regulyativ); *“Suvsiz hayot bo’lmas, Mehnatsiz - rohat”* - mehnat hayotning zarur shartidir (aksiologik); *“Ot surinmay yo’l topmas, Yigit urinmay mol topmas”* - natijaga faqat harakat va mehnat bilan erishiladi (regulyativ); *“Mehnat qilmay rohat ko’rmas, Urug’ sepmay ekin o’rmas”* - mehnatsiz natija bo’lmaydi (regulyativ); *“Hurmating – savlating, Mehnating - davlating”* - boylik va qadrning asosi mehnatdir (aksiologik); *“Mehnat qilsang, yasharsan, Katta-katta osharsan”* - mehnat taraqqiyot va farovonlikka olib keladi (aksiologik); *“Oz yesang ko’p yashaysan, Mehnat qilsang ko’p oshaysan”* - mehnat moddiy ne’matlarni ko’paytiradi (utilitar); *“Mehnatdan kelsa boylik, Turmush bo’lur chiroylik”* - boylikning qadri mehnat bilan topilganda oshadi (aksiologik); *“Mehnatning ko’zini topgan, Boylikning o’zini topar”* - ishni bilib qilish muvaffaqiyat keltiradi (utilitar); *“Betashvish bosh qayda, Mehnatsiz osh qayda?!”* - yashash uchun mehnat qilish zarur (regulyativ); *“Oson ishning ohi bor”* - mehnatsiz yoki yengil yo’l bilan topilgan narsa oqibat keltiradi (baholovchi); *“Xirmon yanchish – sa’vaning ishi emas”* - katta natija uchun tajriba va mehnat kerak (utilitar); *“Uchqundan qo’rqan temirchi bo’lmas”* - qiyinchilikdan qo’rqan inson muvaffaqiyatga erisha olmaydi (regulyativ); *“Mehnat qilgan – ne yaxshi, Unumini yegan undan yaxshi”* - mehnatning samarasidan bahramand bo’lish muhim (aksiologik); *“Ter chiqqandan jon chiqmas”* - mehnatdan qo’rqaslik kerak (regulyativ); *“Ter chiqqandan dard chiqar”* - mehnat sog’lomlashtiruvchi kuchga ega (utilitar); *“Ter to’ksang mard bo’lasan, Ter to’kmasang mo’rt bo’lasan”* - mehnat inson xarakterini chiniqtiradi (aksiologik); *“Terga botgan – rohatga botar”* - mehnat farog’at va huzurga olib keladi (aksiologik); *“Tek turmagan - to’q turar”* - harakat qilgan inson farovon yashaydi (baholovchi); *“Tirishqoqning labi yog’liq, Erinchoqning boshi qonliq”* - tirishqoqlik muvaffaqiyat, dangasalik kulfat keltiradi (baholovchi); *“G’ayrati bor kishining unumi bor ishinig”* - natija g’ayrat va sa’y-harakatga bog’liq (aksiologik); *“Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat”* - mehnatsevarlik baxt keltiruvchi fazilatdir (etik-aksiologik); *“Halol mehnat – mo’l daromad”* - halol mehnat farovonlik manbai (aksiologik); *“Halol mehnat insonni ulug’laydi”* - mehnat inson qadrini oshiradi (aksiologik); *“Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas”* - dangasalik natijasizlik va muammolar manbai (baholovchi); *“Yalqovning yovi-yumush”* - dangasa inson ishni dushman deb biladi (baholovchi); *“Yalqovga bulut soyasi ham-yuk”* - dangasa eng yengil ishni ham og’ir deb hisoblaydi (baholovchi); *“Erinchoqning og’zini it yalaydi”* - dangasalik xorlik va beparvolikka olib keladi (baholovchi); *“Dangasaning vaji ko’p, Ohangsizning avji ko’p”* - dangasa ish qilmaslik uchun bahona qidiradi (baholovchi); *“O’tloqda bedana ko’p, dangasada bahona”* - dangasalikning doimiy hamrohi bahonachilikdir (baholovchi); *“Shotinning pog’onasi ko’p, Yalqovning bahonasi ko’p”* - dangasa har doim uzr topadi (baholovchi); *“Ishyoqmasga-ich og’rig’i bahona”* - ishyoqmas inson sabab qidirib yuradi (baholovchi); *“O’roqchining yomoni o’roq tanlar”* - ish bilmaydigan odam qurolni ayblaydi (baholovchi); *“Ishyoqmas mardikor ketmon tanlar”, “Yomon kosib bigiz tanlar”* - dangasa ishning o’zini emas, vositasini bahona qiladi (baholovchi); *“Tuyaqushga “uch” desalar, “men tuyaman” debdi, “bo’lmasa yuk ko’tar” desalar, “men qushman” debdi”* - mas’uliyatdan qochish va ikkiyuzlamachilik ishyoqmaslik belgisi (ijtimoiy-baholovchi); *“Yalqov xotinga bolasi borligi bahona”* - dangasa inson har qanday vaziyatdan uzr sifatida foydalanadi (baholovchi); *“Erinchoqning do’ppisi yerga tushsa, pul berib oldiradi”* - dangasalik haddan tashqari sustkashlikka olib keladi (baholovchi); *“Yalqovning qo’li qo’ynidan chiqmas”* - dangasa harakat qilishni istamaydi (baholovchi); *“Erinchoqning qo’li yetmas, qo’li yetsa ham ishi bitmas”* - dangasalik imkoniyat bo’lsa ham natija bermaydi (baholovchi); *“Erinchoqning qo’li qisqa, Erinmaganning- yo’li”* - mehnatsevar inson imkoniyat topadi (baholovchi); *“Yalqov yotib buyurar”* - dangasa o’zi ishlaymay, boshqalarga topshiradi (ijtimoiy-baholovchi); *“Yalqov o’tirgan yerida o’tin yoradi”* - dangasa harakat qilmay natija kutadi (baholovchi); *“Ishsiz kelib, ishlikni ishdan qo’yar”* - dangasa boshqalarning ishiga ham xalal beradi (ijtimoiy); *“Ishchan yerni yashnatar, Yalqov yerni qaqshatar”* - mehnat taraqqiyot, dangasalik tanazzul keltiradi (aksiologik); *“Ishchanni ishga chaqir, Ishyoqmasni oshga chaqir”* - har kim o’z tabiati va odatiga mos harakat qiladi (baholovchi); *“Ish desa- ayyor, osh desa-tayyor”, “Tayyorga ayyor”, “Ish deganda-nofarmon(bo’ysunuvchi), Osh deganda-jon qurbon”, “Ish desa og’riydi oshiq-moshig’im, Osh desa-tayyor katta qoshig’im”, “Quli-quli, osh quli, Ish desang, og’rir bosh-qo’li”, “Osh desa-qult-qult, Ish desa-qilt-qilt”, “Osh desa-chopar, Ish desa-qochar”, “Osh desang-botir, Ish desang-yotir”, “Oshga qo’noq, Ishga no’noq”* – dangasa ishdan qochib, tayyor narsaga egalik qilishga intiladi (baholovchi); *“Ot bo’lsang-u, kishnamasang, Odam bo’lsang-u, ishlamasang”* - mehnat insonning tabiiy vazifasidir (etik-regulyativ); *“Yalqovlik hastalik keltirar”* - dangasalik jismoniy va ruhiy zarar manbai (utilitar); *“Yalqovlikni bozor olmas, Bozor olsa ham mozor olmas”* - dangasalik hech qayerda qadrlanmaydi (baholovchi); *“Erinchoqlik-boshga balo keltirar”* - dangasalik muammolar sababidir (baholovchi).

Mehnatkashlik konseptining paremiologik materiallar asosida shakllangan nominativ maydoni yadro, yaqin periferiya va uzoq periferiya qatlamlaridan iborat bo’lib, ular o’zbek xalqining mehnat va mehnatsevarlik haqidagi aksiologik tasavvurlarini aks ettiradi. Konsept yadrosini mehnatning qadri (24%), mehnatning farovonlik va muvaffaqiyat manbai ekanligi (22%) hamda tirishqoqlik va g’ayrat (18%) semalari tashkil etadi. Ushbu semantik belgilar umumiy nominativ maydonning 64 foizini qamrab olib, mehnatkashlik konseptining o’zbek lisoniy ongidagi markaziy mazmunini belgilaydi.

Yaqin periferiyada halol mehnat, mehnatning axloqiy ahamiyati, ijtimoiy hurmat va inson qadr-qimmatini belgilovchi omil sifatidagi tasavvurlar (23%) joylashadi. Bu qatlamdagi paremiologik birliklarda mehnat vijdon, halollik,



obro', baxt va komillik bilan bog'lanib, insonning ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi muhim qadriyat sifatida talqin qilinadi.

Uzoq periferiyani esa dangasalik, erinchoqlik va ishyoqmaslikning salbiy oqibatlarini ifodalovchi paremiologik birliklar (13%) tashkil etadi. Ushbu qatlamda mehnatkashlik konsepti oppozitiv asosda namoyon bo'lib, dangasalik qashshoqlik, natijasizlik, ijtimoiy qoralash va baxtsizlik manbai sifatida baholanadi. Natijada o'zbek xalqining konseptual olamida "mehnatkashlik" konsepti nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki halollik, g'ayrat, ijtimoiy hurmat, farovonlik va ma'naviy komillik bilan bog'liq bo'lgan muhim axloqiy-ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Paremiologik birliklarda mehnatkash inson ideal shaxs sifatida ulug'lansa, dangasalik va ishyoqmaslik jamiyat tomonidan qoralanadigan salbiy xususiyatlar sifatida talqin qilinadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, o'zbek tilining paremiologik fondida "mehnatkashlik" konsepti xalqning mehnatga bo'lgan munosabati, axloqiy ideallari va ijtimoiy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim kognitiv birlik sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilidagi konseptual tizimni, xususan, mehnat va mehnatsevarlik bilan bog'liq milliy tasavvurlarni chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda kelgusida paremiologik konseptlarni qiyosiy va kognitiv yo'nalishlarda o'rganish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирошниченко Л. Н. *Когнитивно-культурологическое представление концепта «труд» в паремиологическом фонде русского и новгородского языков*: дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 247 с.
2. Магомедова Х. Н. *Структурно-семантическая и антропоцентрическая организация паремий аварского языка*: дис. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2013. – 154 с.
3. Басова Л. В. *Концепт «труд» в русском языке (на материале пословиц и поговорок)*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2004. – 20 с.
4. Каримова Р. Х. *Концепт «труд / лень» в паремиологии неродственных языков (на примере немецкого, английского, русского, башкирского и татарского языков)*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2004. – 23 с.
5. Островская Т. А. *Концепт «труд» в русской и американской лингвокультурах*: дис. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 163 с.
6. Чернова О. Е. *Концепт «труд» как объект идеологизации*: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 2003. – 20 с.
7. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
8. Mahmudov N., Xudoyberganova D. *O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 319.
9. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati*. – Toshkent: Fan, 1964. – B. 211.